



KO‘PTILLILIK VA UNING TURLARI

Sayyora QUDRATOVA¹

¹O‘z FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy xodimi

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIYA
Bir tillilik, ko‘ptillilik, madaniy harxillik, millatlararo muloqot, til siyosati, ijtimoiy-kommunikativ tizim.	Mazkur maqolada madaniy xilma-xillikni yuzaga keltiruvchi ko‘ptillikning yuzaga kelishi, ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni, vazifalari haqida so‘z boradi. Shuningdek, til siyosatining bir ko‘rinishi bo‘lgan ko‘ptillilikning o‘ziga xos xususiyatlari tavsiflanib, ushbu tushunchaga oid masalalar tahlil qilinadi.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Монолингвизм, многоязычие, культурное разнообразие, межэтническое общение, языковая политика, социально-коммуникативная система.	В данной статье говорится о возникновении культурного разнообразия, его роли и функциях в общественной жизни. Также описываются специфические черты плюрализма, который является формой языковой политики, и анализируются вопросы, связанные с этим понятием.
KEY WORDS	ABSTRACT
Monolingualism, multilingualism, cultural diversity, interethnic communication, language policy, socio-communicative system.	This article talks about the emergence of plurality, which manifests cultural diversity, its role and functions in social life. Also, the specific features of pluralism, which is a form of language policy, are described, and issues related to this concept are researched.

Kirish. Sotsiolingvistikaning tadqiqot obyekti bo‘lgan ko‘ptillilik nafaqat sotsiolingvistika, shuningdek, psixo-lingvistika, etnolingvistika, lingvo-kulturologiya va boshqa til sohasiga aloqador jarayon sifatida o‘rganiladi. Shaxslarning ikki yoki undan ortiq tillarni bilishi yoki ma‘lum bir ma‘muriy-siyosiy hududda bir necha mahalliy tillarning mavjud bo‘lishi mamalakat hududida ko‘ptillilikni yuzaga keltiradi. Til va madaniyat bir-biri bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli ko‘ptillilik mavjud hududda ko‘pmadaniyatlilik ham yuzaga keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Sotsiolingvistika sohasida ko‘ptillilik tushunchasini yoritishda bir qancha sotsiolingvistik izlanishlar mavjud. Xususan, Sh.Usmonova, N.Bekmuxammedova, G.Iskandarovalarning “Sotsiolingvistika”,

V.M. Smokotinning “Многоязычие и проблемы преодоления межъязыковых и межкультурных коммуникативных барьеров в современном мире”, B.R.Mogilevich, A.A.Kalinkinlarning “Многоязычие как социокультурный феномен” kabi ilmiy izlanishlaridan foydalangan holda o‘zbek sotsiolingvistikasida ko‘ptillilik tushunchasi mohiyati yoritib berildi. Ushbu tadqiqot davomida tahlil, qiyoslash va tavsiflash usullaridan keng foydalanildi va tadqiqot ishi yuzasidan muayyan xulosalar chiqarildi.

Tahlil va natijalar. Yevropa tilshunosligida ko‘ptillilik atamasi XIX asrning boshlarida qo‘llana boshlagan. Xususan, XIX asrning 40-yillarida “Webster” lug‘atida ko‘ptillilikka mos keladigan “multilingualism” atamasi paydo bo‘lgan [5]. Hozirgi kunda ko‘ptillilik atamasi ingliz tilida “multilingualism” (1830), fransuz

tilida “plurilingualizm” (1956), rus tilida “мультиязычие”, “многоязыковость”, “многоязыковость” kabi bir qator sinonim shakllarga ega. “Multilingualism” va “plurilingualizm” atamaları ko‘ptillilik ma’nosini anglatsa-da, ular orasida sezilarli farq mavjud. Masalan, “multilingualism” atamasi shaxsning bir necha tilda malakaliligini ifodalasa, “plurilingualizm” atamasi esa ma’lum bir hudud (mamlakat, mintaqa, shahar), sotsial guruh (tadbirkorlik, o‘qituvchilik, ovchilik) hamda vosita turlari (kitob va ijtimoiy tarmoqlar)ga nisbatan qo‘llanadi. Qadimdan ko‘ptillilik kichik til guruhları orasida savdo-sotiq natijasida shakllangan. Bugungi kunda ko‘ptillilikning tarqalishi nafaqat savdo-sotiq, balki, din, ommaviy axborot vositalari va migratsiya natijasida yuzaga kelmoqda.

Ko‘ptillilik jamiyatning ayrim yoki barcha a’zolariga tegishli bo‘lishi mumkin. Albatta, ko‘ptillilikni shaxs yoki jamoaviy turlarga ajratish mantiqiy jihatdan to‘g‘ridir. Chunki til ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Sotsiolingvistikada ko‘ptillilik ko‘p komponentli ijtimoiy-kommunikativ tizim hisoblanadi. Ijtimoiy-kommunikativ tizimni tashkil etuvchi turli tillar orasida funksional munosabat mavjud bo‘lib, har bir til alohida mavjudlik shakllari (adabiy til, hududiy dialekt, jargon, subkod va b.lar)ga ega. Ko‘ptillilikning shakllanishi ikki tilning ta’sirlashuvi natijasida yuzaga keluvchi ikkitillilik bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Chunki ko‘ptillilik ikkitillilik asosida shakllanadi.

Ko‘ptilli jamiyatning asosiy masalalaridan biri bu jamiyat a’zolarining barchasiga birdek xizmat qiluvchi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda keng foydalaniluvchi, davlat tili bilan teng mavqega ega bo‘lgan asosiy muloqot vositasi bo‘lib xizmat qiluvchi tilni tanlash hisoblanadi.

Til va madaniyat o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, ko‘ptillilik madaniy xilma-xillikni yuzaga keltiradi. Globallashayotgan dunyoda til, etnos va jamiyatning ijtimoiy tuzilishi haqida qarama-qarshi yondashuvlar mavjud. Bular konstruktiv va primordialistik yondashuvlar hisoblanadi. Konstruktiv yondashuv vakillari madaniy o‘ziga xoslik ijtimoiy o‘ziga xoslikka ta’sir etmaydi. Dunyo til va madaniyatlarining xilma-xilligini qo‘llab-quvvatlay olmasligini ta’kidlashadi. Bu yondashuv M.Veber, E.Dyurkgey va K.Marks nazariyasi orqali shakllangan. Primordialistik yondashuv vakillari til va madaniyat xilma-xilligini himoya qiladilar va etnik guruhlarining ijtimoiy-madaniy ildizlarini qo‘llab-quvvatlaydilar [1; 137].

Darhaqiqat, ko‘ptillilik ko‘p madaniyatlikni yuzaga keltiruvchi omil bo‘lib, madaniyat bilan birgalikda turli xalqlarni ham birlashtiradi. Shu boisdan xalqaro tashkilotlar tomonidan ko‘ptillilik qo‘llab-quvvatlanadi. Masalan, “Ko‘ptillilik madaniy xilma-xillikning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, 2005-yil oktyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 33-sessiyasida qabul qilingan “Madaniy ifodalar xilma-xilligini himoya qilish va rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi konvensiyada o‘z ifodasini topgan [3]. YUNESKO “Hayotimiz davomida tillarni o‘rganamiz” shiori ostida XXI asrni poliglottlar asri deb atagan. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotida rasmiy (ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz) va ishchi (ingliz va fransuz) tillardan teng foydalanish ko‘ptillilikni yuzaga keltiradi. Xalqaro tashkilotlarda ko‘ptillilik manfaatli muloqotni ta’minlash vazifasini bajaradi.

Ko‘ptillilikning yuzaga kelishi til siyosati bilan bog‘liq jarayondir. Mamlakatdagi til siyosati ko‘ptillilikni qo‘llab-quvvatlashi yoki

rad etishi mumkin. Dunyo bo‘ylab ko‘plab davlatlar til siyosatida ko‘ptillilik qo‘llab-quvvatlanganda, ko‘ptillilik rad etilgan, lisoniy har xillik mavjud bo‘lmagan davlatlar ham mavjud. Masalan, bir tilli Islandiya davlatini keltirish mumkin

Til etnik o‘ziga xoslikning muhim belgilaridan biri bo‘lib, shaxs yoki jamoaga tegishli etnomadaniy xususiyatlarni o‘zida saqlaydi. Ammo bundan mustasno holatlar ham kuzatilishi mumkin. Ko‘ptilli jamiyatda bir necha tillarning mavjud bo‘lishi, o‘zaro ta’sirlashuv natijasida birlashishi tillar ittifoqini yuzaga keltiradi. Ammo etnik birlikni yuzaga keltirmaydi. Har bir etnos o‘z tiliga ega. Shu boisdan ham, ko‘p tilli jamiyatda tillar til egalari orasida ularning etnik xosligiga ko‘ra taqsimlanadi: masalan, hozirgi Rossiyada ruslar bilan birga tatarlar, yoqutlar, osetin va boshqa xalqlar ham istiqomat qiladi, ularning har biri o‘z ona tiliga ega. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, tillar va etnoslar orasidagi munosabat bir xil bo‘lmaydi: bir tomondan, ko‘p millat vakillari o‘z ona tilidan tashqari shu jamiyatda keng qo‘llanuvchi boshqa tillardan ham foydalanadilar; boshqa tomondan, shunday tillar borki, masalan, suaxili tili, “bu tilda so‘zlashuvchi tub etnik qatlam yo‘q, chunki Afrikada ona tili suaxili bo‘lgan avtohton etnosi mavjud emas”... [4; 107]. Tabiiy usulda shakllangan tillarda til va etnos bir-biriga bog‘liq bo‘lsa, sun‘iy usulda shakllangan tillarda til va etnos orasida munosabat mavjud bo‘lmaydi. Afrikada qo‘llaniluvchi suaxili tili sun‘iy til bo‘lganligi bois shakllanishi ma’lum bir etnosga borib taqalmaydi.

Ko‘ptillilik shaxs, jamoa yoki jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar tufayli turli yo‘llar bilan namoyon bo‘ladi. Masalan: paydo bo‘lish usuliga ko‘ra: tabiiy yoki suniy; shaxs, guruh

yoki jamiyatda qo‘llanishiga ko‘ra: individual, jamoaviy va umummilliy; rasmiylik darajasiga ko‘ra: rasmiy va norasmiy; shaxsning til malakasi darajasiga ko‘ra: mutanosib (semitrik) va nomutanosib (assemitrik); tillarning qarindoshlik darajasiga ko‘ra: yaqin, uzoq qarindosh va noqarindosh tillar ko‘ptilliligi.

Individual ko‘ptillilik – shaxsning bir necha tillarni o‘zlashtirishi va muloqotda foydalanishi.

Jamoaviy ko‘ptillilik – ma’lum bir til jamoasi, ijtimoiy guruhlar aro vaziyat va holatdan kelib chiqib bir qancha tillardan foydalanishi.

Umummilliy ko‘ptillilik – o‘zaro muloqot qilish zaruriyatidan kelib chiqib, aholining muayyan qismi davlat tili bilan birgalikda bir necha tilda so‘zlasha olishi. Individual va jamoaviy ko‘ptillilik fanda mikro ko‘ptillilik, umummilliy ko‘ptillilik esa makro ko‘ptillilik deb nomlanadi.

Fransiya, Germaniya, Italiya va Avstriya davlatlari bilan chegaradosh hududda joylashgan Shvedsariyani barqaror rasmiy ko‘ptilli davlat sifatida keltirish mumkin. Shveysariya aholisining 73,5 % nemis, 20,1 % fransuz, 4,5 % italyan va 0,9 % retoroman tillarida muloqot qilishadi. Demografik noteng til vaziyati amal qiladigan Shveysariyada bu tillarga birdek rasmiy til maqomining berilishi so‘zlashuvchilar soniga emas, balki ijtimoiy-geografik hudud jihatidan amalga oshirilgan.

Kanadada ingliz va fransuz tillari rasmiy jihatdan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda teng qo‘llanilishi bois rasmiy ikkitilli davlat hisoblanadi. Ammo Kanadada ingliz va fransuz tillaridan tashqari bir necha mahalliy (xitoy, panjob, ispan, tagolog, arab, fors va urdu) tillarining qo‘llanishi davlat miqyosida norasmiy ko‘ptillilikni yuzaga keltiradi. O‘zbekiston hududida ham bir necha mahalliy

(qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik) tillarining amal qilishi norasmiy ko‘ptillik sifatida qaraladi.

Ba’zi manbalarda ko‘ptillilik atamasi “shaxslarning o‘z ona tilini bilish darajasida bir necha tillarni bilishi” [6; 25] deb izohlanadi. Ammo ko‘ptilli shaxslar ko‘pincha barcha tillarda teng malakaga ega bo‘lmasligi mumkin. Chunki, ko‘ptillilik shaxsning til bilish malakasiga ko‘ra mutanosib (simmetrik) va nomutanosib (asimmetrik) ko‘ptillilikka ajraladi. Mutanosib (simmetrik) ko‘ptillilik deganda shaxslarning barcha tillarda teng malakaga ega bo‘lishi tushunilsa, nomutanosib (assimmetrik) ko‘ptillilikda esa shaxslarning bir necha tillarda teng malakaga ega emasligi tushuniladi.

Professor Y.Odilov tillarni qarindoshlik darajasiga ko‘ra yaqin, uzoq qarindosh va noqarindosh tillar ko‘ptilliligiga ajratadi. Olimning fikricha: bir til oilasining bir til guruhiga mansub tillarning o‘zaro munosabati “yaqin qarindosh tillar ko‘ptilliligi”ni, bir til oilasining turli guruhiga mansub tillarning o‘zaro munosabati “yaqin qarindosh tillar ko‘ptilliligi”ni, turli guruhga mansub tillarning o‘zaro munosabati “noqarindosh tillar ko‘ptilliligi”ni yuzaga keltiradi.

1. Chexiya va Slovakiyada chex va slovak, Ukrainada ukrain va rus, Litvada latish va latgal tillarining o‘zaro munosabati “yaqin qarindosh tillar ko‘ptilliligi”ni yuzaga keltiradi.

2. O‘zbekistonda o‘zbek va tojik, Tojikistonda tojik va o‘zbek, Belgiyada fransuz (roman tillari guruhi) va golland (german tillari guruhi) tillarining, Finlyandiyada fin (fin-ugor tillari guruhi) va shved (german tillari guruhi) tillarining amal qilishi “noqarindosh tillar ko‘ptilliligi”ni namoyon etadi. O‘zbekistondagi “noqarindosh tillar ko‘ptilliligi” Qozog‘istonda qozoq va rus, Turkmanistonda turkman va rus ko‘ptilliligi bilan o‘xshash [2; 12].

Muhokama va xulosa. Ko‘ptillilik o‘zbek sotsiologiyasida shaxs yoki ijtimoiy guruhlarining bir necha tillarda malakali ekanligi hamda ma’lum bir siyosiy-ma’muriy hududda bir necha tillarning amal qilishi bilan bog‘liq jarayon sifatida tadqiq qilinadi. Mikroko‘ptillilik shaxs va jamoalar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarda faol qo‘llanib, manfaatli muloqotni ta’minlaydi. Makroko‘ptillilik ma’lum bir ma’muriy-siyosiy hudud, davlat miqyosida qo‘llanib, jamiyatda ijtimoiy hamjihatlik, millatlararo samarali muloqotni ta’minlash vazifasini bajaradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Могилевич Б.Р., Калинин А.А. Многоязычие как социокультурный феномен // Известия Саратовского университета. Нов. сер. Сер. Социология. Политология, 2017. – Т. 17, вып. 2. – С. 136-138.

2. Одилов Ё. Тил вазияти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2021. №4. – Б. 10-15.

3. Резолюция 63/306 Генеральной Ассамблеи, пункт 31.

4. Рябова И. С. Различия в функциональном членении суахили в Танзании и Кении // Функциональная стратификация языка. – М., 1985.

5. Random House Webster’s College Dictionary. – New York: Random House, 1995.